

**INTERPRETATION OF THE MOST FAVOURED NATION (MFN)
CLAUSE IN MODERN ARBITRATION: CONFLICTS OF
INTERPRETATION AND METHODOLOGICAL ISSUES**

Quronboyeva Shoxsanam Shuhrat qizi

Master's Student, International Commercial Law Tashkent State University of Law

E-mail: kuranboyevashohsanam01@gmail.com

ABSTRACT

This thesis analyzes methodological challenges concerning the interpretation of the Most Favored Nation (MFN) clause in international investment arbitration. The research examines the scope of MFN application to substantive and procedural rights, specifically focusing on its impact on dispute settlement procedures. Based on the Maffezini and Plama precedents, the study explores the nature of interpretational conflicts and the methodological role of the Vienna Convention and the *ejusdem generis* principle. Finally, practical recommendations are provided regarding the Bilateral Investment Treaties (BITs) and the 2019 Investment Law of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: *MFN clause, investment arbitration, interpretation conflict, ejusdem generis, procedural rights, substantive rights, ICSID, BIT, Vienna Convention, Investment legislation of Uzbekistan.*

**MOST FAVOURED NATION (MFN) BANDINING ZAMONAVIY
ARBITRAJDA TALQINI: INTERPRETATSIYA ZIDDIYATLARI VA
METODOLOGIK MUAMMOLAR**

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro tijorat huquqi yo'nalishi magistranti

Quronboyeva Shoxsanam Shuhrat qizi

E-mail:kuranboyevashohsanam01@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdagi eng ko'p qulaylik yaratish rejimi bandi (Most Favoured Nation - MFN clause) xalqaro investitsiya arbitrajida talqin qilinishi bilan bog'liq metodologik muammolar — xususan, moddiy (substantive) va protsessual (procedural) huquqlarga nisbatan qo'llanish chegaralari — tahlil etiladi. XVIII – XIX asrlar klassik savdo huquqidagi funksiyadan zamonaviy ikki tomonlama investitsiya shartnomalari (Bilateral Investment Treaty — BIT) amaliyotigacha bo'lgan interpretatsiya evolyutsiyasi kuzatiladi; Maffezini va Plama pretsedentlari zaminida yotgan talqin ziddiyatlarining tabiati va *ejusdem generis* prinsipining metodologik roli o'rganiladi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi BITlari va 2019-yilgi investitsiya qonuni kontekstida amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *MFN bandi, investitsiya arbitraji, interpretatsiya ziddiyati, ejusdem generis, protsessual huquq, moddiy huquq, ICSID, BIT, Vena konvensiyasi, O'zbekiston investitsion qonunchiligi.*

АННОТАЦИЯ

В данной работе анализируются методологические проблемы толкования оговорки о режиме наибольшего благоприятствования (РНБ/MFN) в международном инвестиционном арбитраже. Исследуются границы применения оговорки MFN в отношении материальных и процессуальных прав, в частности, её влияние на механизмы разрешения споров. На основе прецедентов Маффезини (Maffezini) и Плама (Plama) раскрывается природа конфликтов толкования, а также роль Венской конвенции и принципа *ejusdem generis*. В заключении представлены практические рекомендации по совершенствованию двусторонних инвестиционных договоров (ДИД) и закона об инвестициях 2019 года Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Оговорка MFN, инвестиционный арбитраж, конфликт толкования, *ejusdem generis*, процессуальные права, материальные права, МЦУИС

(ICSID), ДИД (BIT), Венская конвенция, Инвестиционное законодательство Узбекистана.

Xalqaro investitsiya huquqida eng ko'p qulaylik rejimi bandi (Most Favoured Nation - MFN clause) dastlab ikki tomonlama savdo munosabatlarida diskriminatsiyani bartaraf etish vositasi sifatida shakllangan¹. Biroq, uning BITlar tizimiga ko'chirilishi bilan birga, talqin doirasi ham keskin kengaydi: endi tribunallar MFN bandini nafaqat moddiy huquqlar (substantive rights), balki protsessual mexanizmlarga — xususan, nizolarni hal etish tartiblari va arbitraj shartlariga (dispute settlement clauses) — nisbatan ham tatbiq etish mumkinmi, degan savolga javob berishi zarur bo'ldi².

Ana shu masalada xalqaro arbitraj tribunallari mutlaqo zid pretsedentlar shakllantirdi. 2000-yildan beri ICSID (International Centre for Settlement of Investment Disputes) va boshqa arbitraj institutlari doirasida chiqarilgan qarorlar bir-biriga tubdan qarama-qarshi metodologik yondashuvlarni aks ettiradi³. Natijada investorlar ham, davlatlar ham MFN bandining qo'llanish doirasini oldindan aniq belgilashda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu holat shartnomaviy munosabatlarda huquqiy barqarorlik (legal certainty) va bashorat qilish imkoniyati (predictability) tamoyillarini jiddiy ravishda zaiflashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu masalaning dolzarbligi ayniqsa yuqori: mamlakat 50 dan ortiq davlat bilan BIT imzolagan, 2019-yilda yangi investitsiya qonunini qabul qilgan va xalqaro kapital jalb qilish siyosatini kuchaytirib, faol arbitraj

¹ General Agreement on Tariffs and Trade (GATT), Art. I:1 (1947), 55 UNTS 194. MFN tamoyili WTO doirasida ham I moddada saqlanib qolgan.

² UNCTAD. (2015). Most-Favoured-Nation Treatment. UNCTAD Series on Issues in International Investment Agreements II. UN Doc. UNCTAD/DIAE/IA/2010/1. P. 22–28.

³ Dolzer, R., & Schreuer, C. (2012). Principles of International Investment Law (2nd ed.). Oxford: OUP. P. 207.

muhitiga kirib kelmoqda⁴. Mazkur siyosiy kontekstda MFN bandining talqin muammolari huquqiy va moliyaviy xavf-xatarlarni oshirishi mumkin⁵.

Tadqiqotning maqsadi — zamonaviy xalqaro investitsiya arbitrajida MFN bandining talqini bilan bog'liq interpretatsiya ziddiyatlarini tizimli tahlil qilish, ushbu ziddiyatlarning metodologik ildizlarini aniqlash va O'zbekiston Respublikasining investitsiya shartnomalariga nisbatan asosli huquqiy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot doirasida uchta asosiy ilmiy savol ko'rib chiqiladi:

(1) MFN bandining klassik va zamonaviy funksiyalari o'rtasidagi metodologik farq nimalarda ifodalanadi va bu farq qanday talqin ziddiyatlarini keltirib chiqaradi;

(2) Vena konvensiyasining (1969) 31-33-moddalari⁶ asosida shakllantirilgan talqin metodologiyasi MFN bandiga protsessual masalalar bo'yicha qo'llanishi mumkinmi;

(3) ejusdem generis prinsipi ushbu talqin ziddiyatini bartaraf etish uchun yetarlicha samarali metodologik vosita hisoblanadimi.

MFN bandining talqin evolyutsiyasi va interpretatsiya muammosining kelib chiqishi

An'anaviy savdo huquqida MFN bandi (GATT I moddasi) faqat tarif, bojxona tartibi va tovar muomalasiga nisbatan qo'llanardi. Uning protsessual mexanizmlarga — nizolarni hal etish tartiblariga — tatbiq etilishi hech qachon ko'zda tutilmagan. Biroq BITlar tizimida MFN bandi ko'pincha "barcha sohalarda" yoki "investitsiya bilan bog'liq barcha masalalarda" qo'llanishini nazarda tutuvchi keng iboralar bilan yozilgan. Aynan mana shu tahrir noaniqlik (ambiguity) va interpretatsiya ziddiyatining asosiy manbai

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 25.12.2019, O'RQ-598-son, 7-modda: "Chet el investorlari va ularning investitsiyalariga nisbatan eng qulay millat rejimi va milliy muomala rejimi qo'llaniladi."

⁵ O'zbekiston–Germaniya ikki tomonlama investitsiya shartnomasi (2000), 3(1)–3(2)-moddalar. Xuddi shunday tuzilma O'zbekiston–Fransiya BITi va O'zbekiston–Janubiy Koreya BITida ham mavjud.

⁶ Vienna Convention on the Law of Treaties, Art. 31(1). Shuningdek qarang: Art. 32 (supplementary means of interpretation).

bo'ldi⁷. MFN bandining nazarda tutilayotgan keng tahriri protsessual imtiyozlarni ham qamrab oladi, deb talqin qilish uchun imkon ochib beradi.

Shartnomalarni talqin qilish metodologiyasi nuqtai nazaridan Vena konvensiyasining 31(1)-moddasi bandni uning oddiy ma'nosida (ordinary meaning), kontekstida, shartnomaning maqsadi va predmetiga (object and purpose) ko'ra talqin qilishni talab etadi. Biroq arbitraj tribunallari ushbu metodologiyani MFN bandiga nisbatan turlicha qo'lladi — bu esa talqin birligining (uniformity of interpretation) yo'qolishiga olib keldi.

Asosiy talqin ziddiyati: Maffezini va Plama yondashuvlari

2000-yilda Maffezini v. Spain (ICSID Case No. ARB/97/7) ishida tribunal MFN bandini arbitraj shartlariga nisbatan qo'llash mumkin deb topdi. Hispanyia–Argentina BITiga tayanib, investor Hispanyia–Chili BITidagi kengroq arbitraj shartlarini import qildi va mahalliy sudlarda 18 oy kutish majburiyatidan ozod etildi. Tribunal "arbitrajga kirish huquqi moddiy himoyaning ajralmas qismidir" (access to arbitration is an integral part of substantive protection) degan konsepsiyani ilgari surdi. Bu qaror keyinchalik Siemens v. Argentina (2004) va Gas Natural v. Argentina (2005) ishlari uchun asos bo'ldi⁸.

Biroq Plama v. Bulgaria (ICSID Case No. ARB/03/24, 2005) ishida tribunal Maffezini doktrinasini uch asosiy dalil bilan rad etdi.

⁷ Schill, S. W. (2009). The Multilateralization of International Investment Law. Cambridge: CUP. P. 122–148.

⁸ Siemens A.G. v. The Argentine Republic. ICSID Case No. ARB/02/8. Decision on Jurisdiction, 3 August 2004, §§ 100–109; Gas Natural SDG, S.A. v. The Argentine Republic. ICSID Case No. ARB/03/10. Decision on Jurisdiction, 17 June 2005, §§ 24–31.

Birinchiidan, Vena konvensiyasining 31-moddasi talabiga ko'ra, MFN bandi uning aniq matniiy konteksti, maqsadi va predmetiga ko'ra talqin qilinishi zarur: "barcha sohalarda" iborasi protsessual mexanizmlarni qamrab olmaydi⁹.

Ikkinchiidan, davlatlar BIT tuzishda arbitraj shartlarini ongli ravishda muzokaralar orqali kelishib oladi; MFN bandi orqali ushbu kelishuv bir tomonlama o'zgartirilishi davlatning shartnomaviy irodasi (treaty intent) va suverenitetiga zarar etkazadi. Uchinchiidan, bunday talqin arbitraj shartini asosiy shartnomada kelishilgan va ko'zlangan maqsadiga zid tarzda butunlay yo'qqa chiqaradi. Telenor v. Hungary (ICSID, 2006) va Salini v. Jordan (ICSID, 2004) ishlari ham Plama standartini tasdiqladi¹⁰.

Ejusdem generis prinsipi va zamonaviy tendensiyalar

2010-yillardan boshlab zamonaviy arbitraj tribunallari va huquqiy doktrinada ejusdem generis ("bir xil turdagi") prinsipi MFN interpretatsiya muammosini hal etishda asosiy metodologik vosita sifatida tobora keng qabul qilinmoqda. Ushbu prinsip bo'yicha MFN bandining qo'llanish doirasi asosiy shartnomada ko'zda tutilgan huquqlar sinfi (category of rights) bilan chegaralanishi lozim. Agar shartnoma moddiy himoya mexanizmlarini tartibga solish uchun tuzilgan bo'lsa, MFN bandi yordamida protsessual imtiyozlarni import qilish ejusdem generis prinsipiga zid bo'ladi.

Garanti Koza v. Turkmenistan (ICSID Case No. ARB/11/20, 2013) ishida appellatsiya qo'mitasi protsessual huquqlarga nisbatan MFN bandini qo'llash uchun "aniq va oydin matniiy asos" (clear and unambiguous textual basis) talab qilinishini ta'kidladi. Zamonaviy davlat amaliyotida ham bu tendensiya yanada kuchaymoqda. EU–Canada CETA shartnomasi (2016) ning 8.7(4)-moddasi, Hindiston model BITi (2015)

⁹ Plama v. Bulgaria, ibid., § 209: "An MFN provision in a basic treaty does not incorporate by reference dispute settlement provisions in whole or in part set forth in another treaty, unless the MFN provision in the basic treaty leaves no doubt that the contracting parties intended to incorporate them".

¹⁰ Telenor Mobile Communications A.S. v. The Republic of Hungary. ICSID Case No. ARB/04/15. Award, 13 September 2006, § 92; Salini Costruttori S.p.A. v. The Hashemite Kingdom of Jordan. ICSID Case No. ARB/02/13. Decision on Jurisdiction, 29 November 2004, § 119.

ning 4-moddasi va ASEAN investitsiya doirasidagi so'nggi kelishuvlar MFN bandining protsessual mexanizmlarga qo'llanmasligini to'g'ridan-to'g'ri belgilaydi. UNCTAD ning 2023-yilgi yangilangan investitsiya islohot paketi ham shu yo'lni tavsiya etib, MFN bandining mazmunini aniq chegaralashni taklif qiladi.

O'zbekiston Respublikasining ko'pgina amaldagi BITlarida MFN bandi "investitsiya va investitsiya faoliyatining barcha sohalarida" yoki "investorlarning muomalasiga nisbatan barcha masalalarda" qo'llanishi nazarda tutilgan. Masalan, O'zbekiston–Germaniya BITi (2000) ning 3(1)–3(2)-moddalari, O'zbekiston–Fransiya BITi va O'zbekiston–Janubiy Koreya BITlari shu formatda tuzilgan. Mazkur tahrir Maffezini doktrinasiga tayanib protsessual huquqlarni import qilish uchun argument sifatida qo'llanishi mumkin.

2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi yangi qonunning (O'RQ-598) 7-moddasi¹¹ MFN kafolatini milliy muomala printsipli bilan birga mustahkamlagan. Biroq qonunda MFN bandining protsessual masalalar, jumladan, investitsiya nizolarini hal etish mexanizmlari uchun qo'llanish doirasi aniq belgilanmagan. Bu huquqiy bo'shliq (legal gap) arbitraj amaliyotida O'zbekiston davlatiga qarshi kutilmagan talablar uchun asos bo'lishi mumkin.

MFN bandining protsessual masalalarga qo'llanishi masalasida xalqaro arbitraj tribunallari o'rtasidagi ziddiyat shartnoma matnining noaniqligidan emas, balki talqin metodologiyasidagi fundamental farqdan kelib chiqadi. Maffezini yondashuvi teleologik (maqsadga yo'naltirilgan) talqinni asosga olsa, Plama standarti Vena konvensiyasining 31-moddasiga asoslangan matniy-kontekstual talqinni ustun qo'yadi. Ikkinchi yondashuv metodologik jihatdan yanada asosli va prognoz qilish imkoniyati (predictability) nuqtai nazaridan ustunroqdir.

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 25.12.2019, O'RQ-598-son. 7-modda

Ejusdem generis prinsipi zamonaviy arbitraj amaliyotida MFN bandining qo'llanish doirasini belgilashda eng ishonchli metodologik vosita sifatida mustahkamlanmoqda. Ushbu prinsip shartnomaning asosiy predmetidan tashqaridagi huquqlarni MFN orqali import qilishga chek qo'yib, davlat va investor manfaatlarini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

Amaldagi va kelajakda tuzilajak BITlarda MFN bandiga quyidagi mazmundagi aniq cheklash iborasini kiritish zarur: "Ushbu modda asosida berilgan muomala faqat ushbu shartnomada belgilangan moddiy investitsiya huquqlari va kafolatlarga nisbatan tatbiq etiladi. Ushbu modda investitsiya nizolarini hal etish tartib-qoidalariga (dispute resolution procedures), shu jumladan arbitraj shartlariga, qo'llanilmaydi." Bu yondashuv CETA (2016), Hindiston model BIT (2015) va UNCTAD (2023) tavsiyalari bilan to'liq muvofiqlashadi.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuniga 7-moddaga qo'shimcha sifatida "MFN kafolati investitsiya nizolarini hal etish mexanizmlariga tatbiq etilmaydi" degan normani kiritish maqsadga muvofiqdir. Bu qo'shimcha qonun va BITlar o'rtasida izchillikni ta'minlaydi, shuningdek, potentsial arbitraj talablaridan davlatni himoya qiladi.

O'zbekiston Adliya vazirligi va investitsiya idoralari amaldagi barcha BITlarni MFN bandining protsessual qo'llanish xavfi nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqib, UNCTAD texnik yordam dasturlari doirasida ular uchun model BIT tahriri ishlab chiqishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan manbalar (References)

I. Xalqaro shartnomalar va normativ hujjatlar

1. Vienna Convention on the Law of Treaties, 23 May 1969. 1155 UNTS 331. Art. 31–33.

2. General Agreement on Tariffs and Trade (GATT). Art. I:1 (1947). 55 UNTS 194.
3. Energy Charter Treaty (1994). 2080 UNTS 100.
4. CETA — Comprehensive Economic and Trade Agreement between Canada and the EU (2016). Art. 8.7(4).
5. India Model Bilateral Investment Treaty (2015). Art. 4 (MFN — exclusion of procedural matters).
6. ASEAN Comprehensive Investment Agreement (2009). Art. 6.
7. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 25.12.2019, O'RQ-598-son. 7-modda.
8. O'zbekiston–Germaniya ikki tomonlama investitsiya shartnomasi (2000). 3(1)–3(2)-moddalar.
9. O'zbekiston–Fransiya ikki tomonlama investitsiya shartnomasi.

II. ICSID va boshqa arbitraj qarorlari

10. Emilio Agustín Maffezini v. The Kingdom of Spain. ICSID Case No. ARB/97/7. Decision on Jurisdiction, 25 January 2000. 5 ICSID Reports 396.
11. Plama Consortium Limited v. Republic of Bulgaria. ICSID Case No. ARB/03/24. Decision on Jurisdiction, 8 February 2005. 13 ICSID Reports 272.
12. Siemens A.G. v. The Argentine Republic. ICSID Case No. ARB/02/8. Decision on Jurisdiction, 3 August 2004.
13. Salini Costruttori S.p.A. v. The Hashemite Kingdom of Jordan. ICSID Case No. ARB/02/13. Decision on Jurisdiction, 29 November 2004.
14. Telenor Mobile Communications A.S. v. The Republic of Hungary. ICSID Case No. ARB/04/15. Award, 13 September 2006.
15. RosInvestCo UK Ltd. v. The Russian Federation. SCC Case No. V 079/2005. Award on Jurisdiction, October 2007.

16. Garanti Koza LLP v. Turkmenistan. ICSID Case No. ARB/11/20. Decision on Objection to Jurisdiction, 3 July 2013.

III. Xalqaro tashkilotlar hujjatlari

17. UNCTAD. (2015). Most-Favoured-Nation Treatment. UNCTAD Series on Issues in International Investment Agreements II. UN Doc. UNCTAD/DIAE/IA/2010/1.

18. UNCTAD. (2023). Investment Policy Framework for Sustainable Development (3rd ed.). Geneva: UNCTAD.

19. International Law Commission (ILC). (1978). Draft Articles on Most-Favoured-Nation Clauses with Commentaries. Yearbook of the ILC, Vol. II, Pt. 2, pp. 16–73.

IV. Ilmiy adabiyotlar

20. Dolzer, R., & Schreuer, C. (2012). Principles of International Investment Law (2nd ed.). Oxford: OUP. Ch. 6.

21. Schill, S. W. (2009). The Multilateralization of International Investment Law. Cambridge: CUP.

22. Batifort, S., & Heath, J. B. (2017). The New Debate on the Interpretation of MFN Clauses in Investment Treaties: Putting the Brakes on Multilateralization. American Journal of International Law, 111(4), 873–913.

23. McLachlan, C., Shore, L., & Weiniger, M. (2017). International Investment Arbitration: Substantive Principles (2nd ed.). Oxford: OUP. §§ 7.01–7.90.

24. Vandevelde, K. J. (2010). Bilateral Investment Treaties: History, Policy, and Interpretation. Oxford: OUP. Ch. 8.